

HARBIY MODERNIZATSIYA JARAYONIDA INSTITUTSIONAL ISLOHOTLARNING FALSAFIY ASOSLARI

Quvandiqov Xasan Igamberdiyevich

SamDU mustaqil tadqiqotchisi

E-mail: Islombekislombekov10@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur maqolada harbiy modernizatsiya jarayonida institutsional islohotlarning falsafiy mohiyati va ularning zamonaviy harbiy tizim samaradorligini ta'minlashdagi o'rni tahlil qilinadi. Tadqiqotda institutsional o'zgarishlar faqat tashkiliy tuzilmalarni qayta tashkil etish emas, balki boshqaruv tamoyillari, vakolatlar taqsimoti, professional qadriyatlar, harbiy ta'lim, qo'mondonlik madaniyati va javobgarlik mexanizmlarining transformatsiyasi sifatida talqin etiladi.

Kalit so'zlar: harbiy modernizatsiya, institutsional islohot, harbiy institut, qo'mondonlik, boshqaruv, professionalizm, harbiy ta'lim, raqamlashtirish, institutsional barqarorlik.

Аннотация: В статье анализируется философская сущность институциональных реформ в процессе военной модернизации и их значение для повышения эффективности современной военной системы. Институциональные изменения рассматриваются не только как реорганизация организационных структур, но и как трансформация принципов управления, распределения полномочий, профессиональных ценностей, военного образования, командной культуры и механизмов ответственности.

Ключевые слова: военная модернизация, институциональная реформа, военный институт, командование, управление, профессионализм, военное образование, цифровизация, институциональная устойчивость.

Abstract: This article examines the philosophical foundations of institutional reforms in the process of military modernization and their significance for the effectiveness of contemporary military institutions. Institutional change is interpreted not merely as organizational restructuring but as a transformation of governance principles, distribution of authority, professional values, military education, command culture, and accountability mechanisms.

Keywords: *military modernization, institutional reform, military institution, command, governance, professionalism, military education, digitalization, institutional resilience.*

Kirish

XXI asrda harbiy modernizatsiya davlat xavfsizligini ta'minlashning faqat texnik yoki harbiy-texnologik masalasi bo'lib qolmay, murakkab institutsional transformatsiya jarayoniga aylanmoqda. Zamonaviy qurolli kuchlarning samaradorligi endilikda faqat qurol-yarog' va harbiy texnikaning miqdori bilan belgilanmaydi. Harbiy tashkilotning qanday boshqarilishi, qarorlar qanday qabul qilinishi, vakolat va javobgarlik qanday taqsimlanishi, harbiy kadrlar qanday tayyorlanishi hamda yangi texnologiyalar mavjud institutsional muhitga qanday integratsiya qilinishi strategik ahamiyat kasb etmoqda. Shu nuqtayi nazardan, institutsional islohot tushunchasi harbiy modernizatsiyaning ichki mexanizmini anglash uchun muhim kategoriyaga aylanadi. Chunki texnologik yangilik mavjud tashkilotga kiritilgan taqdirda ham, agar boshqaruv qoidalari, kasbiy kompetensiyalar, tashkiliy madaniyat va javobgarlik mexanizmlari o'zgarmasa, modernizatsiyaning real samarasi cheklanishi mumkin. Institutsional yondashuvning klassik asoschilaridan biri D. North institutlarni insonlar o'rtasidagi o'zaro munosabatlarni tartibga soluvchi rasmiy va norasmiy cheklovlar sifatida izohlaydi. U institutlarning o'zgarishi jamiyatdagi imkoniyatlar va tashkilotlarning rivojlanish yo'nalishiga bevosita ta'sir ko'rsatishini ta'kidlaydi [1, 3–4-b.].

Mazkur nazariy fikrni harbiy sohaga tatbiq etganda, harbiy institutni faqat vazirlik, qo'mondonlik, harbiy qism yoki ta'lim muassasasi sifatida emas, balki qoidalar, vakolatlar, professional normalar, boshqaruv amaliyotlari va institutsional xotira majmuasi sifatida ko'rish mumkin. O'zbekiston uchun ushbu masala alohida dolzarblik kasb etadi. So'nggi yillarda mamlakatda mudofaa tizimini takomillashtirish bilan bir qatorda harbiy boshqaruv, qo'mondonlik tarkibini tayyorlash, harbiy ta'lim va kadrlar siyosatini yangilashga ham katta e'tibor berilmoqda. 2022–2026-yillarga mo'ljallangan Qurolli Kuchlarni rivojlantirish konseptual dasturida Bosh shtab faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish, zamonaviy operatsiyalarni rejalashtirish, qo'shinlarni oqilona boshqarish, istiqbolli kadrlar zaxirasini shakllantirish va serjantlar tayyorgarligini takomillashtirish vazifalari belgilangan.



2024-yil 2-yanvardagi mudofaa qurilishi va Qurolli Kuchlarni rivojlantirishga bag‘ishlangan yig‘ilishda ham qo‘mondonlik organlari, birlashmalar, harbiy qismlar va oliy harbiy ta‘lim muassasalari faoliyatining samaradorligini oshirish, jangovar, ma‘naviy-ruhiy tayyorgarlik hamda harbiy - vatanparvarlik tarbiyasini takomillashtirish masalalari ko‘rib chiqilgan. 2025-yil iyul oyida O‘zbekiston harbiy ta‘lim tizimini yangi bosqichga olib chiqish maqsadida 20 dan ortiq davlatning ilg‘or tajribasi o‘rganilgani va uning asosida yangi milliy modelni shakllantirish vazifasi belgilangan. Harbiy xavfsizlik va mudofaa universitetini tashkil etish, harbiy ta‘lim muassasalarini yagona tizimga birlashtirish, yangi mutaxassisliklarni joriy etish va zamonaviy ta‘lim texnologiyalarini qo‘llash shu jarayonning muhim yo‘nalishlaridan bo‘ldi. Shu sababli tadqiqotning asosiy savoli quyidagicha shakllantiriladi: harbiy modernizatsiya jarayonida institutsional islohotlarning falsafiy mazmuni nimadan iborat va ularning barqaror harbiy tizimni shakllantirishdagi roli qanday?

Adabiyotlar tahlili va metodologiya

Harbiy modernizatsiya masalasini institutsional nuqtayi nazardan o‘rganish bir nechta nazariy maktablar kesishmasida shakllangan.

Birinchi yo‘nalish - harbiy professionallik va fuqaroviy-harbiy munosabatlar nazariyasi. S. Huntington harbiy tashkilotni maxsus bilim, kasbiy mas‘uliyat va professional etikaga ega bo‘lgan institut sifatida ko‘rib chiqadi [2, 7–18-b.]. Muallif harbiy professionallikning shakllanishini harbiy tashkilotning institutsional mustaqilligi, professional bilim va mas‘uliyat bilan bog‘laydi [2, 59–79-b.]. Huntington konsepsiyasining bugungi kundagi ahamiyati shundaki, harbiy modernizatsiya professional harbiy institutning ichki sifatlarini ham o‘zgartiradi. Biroq zamonaviy tadqiqotlarda uning fuqaroviy nazorat va professionalizmga oid ayrim qarashlari qayta ko‘rib chiqilmoqda. Masalan, R. Brooks Huntington modelidagi ayrim ziddiyatlarni tahlil qilib, zamonaviy urushlarda siyosiy, strategik va harbiy faoliyat chegaralarini qat’iy ajratish qiyinlashayotganini ko‘rsatadi [3, 17–40-b.].

Ikkinchi muhim yo‘nalish - harbiy o‘zgarish va institutsional moslashuv nazariyasi. T. Farrell va T. Terriff harbiy o‘zgarishlarning asosiy manbalarini madaniyat, siyosat va texnologiya o‘zaro ta’siri orqali tushuntiradi [4, 1–19-b.]. Mazkur yondashuv harbiy modernizatsiyani faqat texnologik jarayon sifatida emas, balki siyosiy va tashkiliy o‘zgarishlar bilan bog‘liq kompleks transformatsiya



sifatida ko‘rish imkonini beradi. T. Farrellning Britaniya armiyasi transformatsiyasiga bag‘ishlangan tadqiqotida harbiy o‘zgarishlarning tarmoq asosidagi boshqaruv, ekspeditsion salohiyat va yangi operatsion konsepsiyalar bilan bog‘liqligi ko‘rsatiladi [5, 777–807-b.].

Uchinchi yo‘nalish - institutsionalizm. D. Northning nazariyasi bu maqola uchun metodologik jihatdan muhim. North formal qoidalar tez o‘zgarishi mumkinligini, biroq norasmiy normalar, urf-odatlar va xulq-atvor kodekslari ancha sekin o‘zgarishini ta’kidlaydi [1, 6-b.]. Bu fikrni harbiy tizimga qo‘llash shuni ko‘rsatadiki, nizom, tashkiliy tuzilma yoki lavozimlar tizimini qisqa muddatda o‘zgartirish mumkin, ammo qo‘mondonlik madaniyati, kasbiy odatlar, qaror qabul qilish stereotiplari va tashkiliy xotiraning transformatsiyasi ancha murakkab jarayondir. O‘zbekiston sharoitida institutsional islohotlarning umumiy mantig‘i ham davlat boshqaruvi tizimining samaradorligini oshirish, raqamlashtirish, professional kadrlarni rivojlantirish va boshqaruv strukturalarini optimallashtirish bilan bog‘lanmoqda. OECDning 2024-yilgi O‘zbekiston bo‘yicha Public Governance Review hisobotida 2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Taraqqiyot strategiyasi va ma‘muriy islohotlar konsepsiyasi institutsional tuzilmalarni modernizatsiya qilish, professional kadrlar salohiyatini oshirish va raqamlashtirish kabi yo‘nalishlarni o‘z ichiga olishi qayd etilgan.

Muhokama

Institutsional islohotni oddiy tashkiliy qayta qurish bilan tenglashtirish mumkin emas. Tashkilot - muayyan tuzilma bo‘lsa, institut - ushbu tuzilmaning faoliyatini belgilovchi qoidalar, vakolatlar, qadriyatlar va munosabatlar tizimidir. Shuning uchun harbiy institutning transformatsiyasi kamida to‘rtta darajada amalga oshadi: tashkiliy daraja → funksional daraja → normativ-qadriyat darajasi → inson kapitali darajasi. Tashkiliy darajada qo‘mondonlik tuzilmalari va vakolatlar qayta belgilanadi. Funksional darajada harbiy organlarning vazifalari va ular o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlar o‘zgaradi. Normativ darajada qaror qabul qilish, javobgarlik, intizom va professional etika standartlari yangilanadi. Inson kapitali darajasida esa yangi bilim, ko‘nikma va kompetensiyalarga ega harbiy mutaxassislar shakllantiriladi. Demak, institutsional islohotning falsafiy mohiyati “tuzilmani o‘zgartirish”dan “faoliyat mantig‘ini o‘zgartirish”ga o‘tish bilan belgilanadi.

Harbiy modernizatsiyaning klassik modeli ko‘pincha qurol-yarog‘ va texnika bilan bog‘lanadi. Biroq zamonaviy urushlar tajribasi texnologiya o‘zi g‘alabani



ta'minlamasligini ko'rsatmoqda. Bir xil texnologiya turli harbiy institutlarda turlicha natija berishi mumkin. Buning sababi - texnologiyani qo'llash usuli, qo'mondonlik tizimi, kadrlar tayyorgarligi va tashkiliy madaniyatning farqlanishidir. Shuning uchun: texnologiya + mos institutsional muhit = samarali modernizatsiya. Aksincha: texnologiya – institutsional moslashuv = cheklangan modernizatsiya. T. Farrell va T. Terriffning tadqiqotlari ham harbiy o'zgarishlarda texnologiya, siyosat va madaniyatning o'zaro ta'sirini alohida ko'rsatadi [4, 1–19-b.]. Bu holat O'zbekiston armiyasini raqamlashtirish jarayonida ham muhim ahamiyatga ega. 2026-yil 7-maydagi taqdimotda armiyani raqamlashtirish, uchuvchisiz tizimlar, robototexnika, sun'iy intellekt, kiberxavfsizlik va yangi mutaxassislarni tayyorlash bo'yicha vazifalar belgilandi. Demak, yangi texnologiya bilan birga unga mos yangi institutsional kompetensiya ham shakllanishi kerak.

Harbiy modernizatsiyaning eng muhim institutsional komponentlaridan biri - qo'mondonlik tizimidir. An'anaviy qo'mondonlik modeli yuqori darajadagi markazlashuv va buyruqning vertikal uzatilishiga tayanadi. Zamonaviy harbiy operatsiyalarda esa tezkor vaziyat o'zgarishi sababli quyi bo'g'in komandirlarining tashabbusi, mustaqil qaror qabul qilishi va real vaqt rejimida axborot almashishi tobora muhimlashmoqda. O'zbekistonning 2022–2026-yillarga mo'ljallangan Qurolli Kuchlarni rivojlantirish dasturida zamonaviy operatsiyalarni rejalashtirish, qo'shinlarni oqilona boshqarish, istiqbolli qo'mondonlik kadrlarini tayyorlash va serjantlar tayyorgarligini tubdan yaxshilash vazifalarining belgilanishi ushbu institutsional transformatsiyaning muhim ko'rsatkichidir. Bu yerda boshqaruvning falsafiy mazmuni o'zgaradi: “buyruqni bajaruvchi harbiy xizmatchi” modelidan “qarorni anglaydigan va vaziyatga mos ravishda professional harakat qila oladigan harbiy xizmatchi” modeliga. Bunday o'zgarish harbiy intizomni susaytirishni anglatmaydi. Aksincha, intizomni yangi professional mazmun bilan to'ldiradi.

Harbiy ta'lim institutsional modernizatsiyaning inson kapitalini shakllantiruvchi asosiy mexanizmidir. Harbiy ta'limda faqat yangi fanlarni joriy etish yetarli emas. Ta'limning o'zi ham o'zgarishi kerak. Xususan: nazariy bilim va amaliyot integratsiyasi; simulyatsion texnologiyalar; raqamli ta'lim; sun'iy intellekt; kiberxavfsizlik; uchuvchisiz tizimlar; boshqaruv va strategik rejalashtirish; mustaqil qaror qabul qilish kompetensiyalari zamonaviy harbiy ta'limning tarkibiy qismlariga aylanmoqda. 2025-yilda O'zbekistonda harbiy ta'lim tizimini yangi model asosida tashkil etish maqsadida xorijiy tajribalar o'rganilgani, Harbiy xavfsizlik va mudofaa



universitetini tashkil etish hamda ta'lim muassasalarini yagona tizim asosida rivojlantirish vazifalari belgilangan. Bu jarayonni institutsional nuqtayi nazardan ta'lim tizimining modernizatsiyasi emas, harbiy professionalizmni qayta ishlab chiqarish mexanizmining modernizatsiyasi sifatida baholash mumkin.

Harbiy institutning zamonaviy demokratik davlatdagi o'rni fuqaroviy-harbiy munosabatlar masalasi bilan chambarchas bog'liq. Huntington fuqaroviy nazorat va harbiy professionalizm o'rtasidagi munosabatni nazariy jihatdan asoslab, professional harbiylarning maxsus ekspertizasi va siyosiy hokimiyatning legitim vakolati o'rtasidagi chegaralarni belgilashga harakat qilgan [2, 80–97-b.]. Huntingtongning “objective civilian control” konsepsiyasi aynan harbiy professionallikni saqlagan holda fuqaroviy nazoratni ta'minlash muammosiga qaratilgan. Biroq zamonaviy xavfsizlik muhiti bu masalani yanada murakkablashtirmoqda. Harbiy faoliyat siyosiy, iqtisodiy, axborot va texnologik jarayonlar bilan tobora ko'proq bog'lanmoqda. Shuning uchun zamonaviy institutsional model ikki prinsipni uyg'unlashtirishi kerak: fuqaroviy strategik nazorat + professional harbiy kompetensiya. Bunda siyosiy qarorlarning legitimligi fuqaroviy hokimiyatga, ularni professional amalga oshirish esa harbiy institutning maxsus bilim va vakolatlariga tayanadi.

Natijalar

Tadqiqot natijasida harbiy modernizatsiya jarayonidagi institutsional islohotlarning beshta asosiy falsafiy xususiyati aniqlandi. **1.** Institutsional islohot - strukturaviy emas, tizimli hodisa. Harbiy tizimdagi biror organ yoki bo'linmani qayta tashkil etishning o'zi modernizatsiyani anglatmaydi. Tashkiliy o'zgarish funksional, normativ va professional o'zgarishlar bilan birgalikda amalga oshirilgandagina institutsional xarakter kasb etadi. **2.** Modernizatsiyaning markazida inson turadi. Yangi texnika, sun'iy intellekt yoki raqamli boshqaruv tizimlarining samaradorligi ularni ishlatadigan mutaxassislarning bilim va kompetensiyalariga bog'liq. Shu sababli harbiy modernizatsiyaning asosiy formulasi: texnika → kadr → institut → natija emas, balki: institut → kadr → texnologiya → operatsion natija ko'rinishida qayta ko'rib chiqilishi mumkin. **3.** Institutsional islohotning samarasi vaqt omiliga bog'liq. Northning institutsional o'zgarishlar haqidagi qarashlari asosida shuni aytish mumkinki, formal qoidalarni tez o'zgartirish mumkin, ammo norasmiy normalar va institutsional xulq-atvorni o'zgartirish uzoqroq vaqt talab qiladi [1, 6-b.]. Demak, harbiy islohotlarning natijasini faqat yangi tuzilma tashkil



etilgan yoki yangi texnika xarid qilinganligi bilan baholash yetarli emas. 4. Institutsional modernizatsiya uzluksiz jarayondir. Harbiy texnologiyalar doimiy o'zgarayotgan sharoitda institut ham bir marta yaratilgan va o'zgaras tizim bo'lib qolmaydi. 2026-yilda O'zbekiston armiyasini raqamlashtirish, robototexnika, uchuvchisiz tizimlar va sun'iy intellekt bo'yicha mutaxassislarni tayyorlashga e'tibor berilishi institutsional modernizatsiyaning yangi bosqichini ko'rsatadi. 5. Barqaror modernizatsiya institutsional moslashuvchanlikni talab qiladi. Tadqiqot asosida quyidagi model taklif etiladi: yangi xavfsizlik muhiti texnologik o'zgarish - institutsional ehtiyoj - tashkiliy va boshqaruv islohoti - professional kadrlar - yangi harbiy madaniyat - institutsional barqarorlik. Ushbu model harbiy modernizatsiyani bir martalik islohot emas, balki doimiy institutsional moslashuv jarayoni sifatida talqin qilish imkonini beradi.

Xulosa

Harbiy modernizatsiya jarayonida institutsional islohotlarning falsafiy mazmuni mavjud harbiy tuzilmalarni mexanik tarzda qayta tashkil etishdan ancha kengdir. Uning mohiyati harbiy tashkilotning faoliyat yuritish mantig'ini, boshqaruv tamoyillarini, professional kompetensiyalarini, vakolat va javobgarlik munosabatlarini hamda harbiy ta'lim mexanizmlarini zamonaviy xavfsizlik muhitiga moslashtirishdan iborat. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, texnologik modernizatsiya institutsional modernizatsiya bilan qo'llab-quvvatlanmasa, yangi texnik imkoniyatlarning samarasi to'liq namoyon bo'lmasligi mumkin. Shu bois zamonaviy armiyada texnologik yangilanish, tashkiliy transformatsiya va professional inson kapitalini yagona tizim sifatida ko'rish zarur. O'zbekiston tajribasi bu jarayonning amaliy ifodasini ko'rsatmoqda. 2022–2026-yillarga mo'ljallangan Qurolli Kuchlarni rivojlantirish konseptual dasturida boshqaruv, qo'mondonlik, kadrlar zaxirasi va serjantlar tayyorgarligiga e'tibor qaratilgani, keyingi bosqichda esa harbiy ta'limning yangi modelini yaratish, Harbiy xavfsizlik va mudofaa universitetini tashkil etish va zamonaviy mutaxassisliklarni joriy qilish bo'yicha chora-tadbirlar belgilangan.

2026-yilda armiyani raqamlashtirish, sun'iy intellekt, robototexnika, uchuvchisiz tizimlar va kiberxavfsizlik yo'nalishlarining rivojlantirilishi esa institutsional islohotlarning yangi texnologik bosqichga o'tayotganini ko'rsatadi. Shu asosda maqolada taklif etilgan “texnologik yangilanish – tashkiliy transformatsiya – professional kompetensiya – institutsional barqarorlik” modeli



O‘zbekiston sharoitida harbiy modernizatsiyani falsafiy jihatdan izohlash uchun muhim konseptual vosita bo‘la oladi. Eng muhim xulosa shundan iboratki, zamonaviy armiyani faqat zamonaviy qurol bilan emas, zamonaviy institut bilan ham qurish mumkin. Texnologiya harbiy salohiyatning vositasi bo‘lsa, institut ushbu salohiyatni amaliy natijaga aylantiruvchi mexanizmdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. North, D.C. (1990). *Institutions, Institutional Change and Economic Performance*. Cambridge: Cambridge University Press, 152 p. Xususan: pp. 3–4, 6–7, 83–104.
2. Huntington, S. P. (1957). *The Soldier and the State: The Theory and Politics of Civil-Military Relations*. Cambridge, Massachusetts: Harvard University Press, Belknap Press, 560 p. Xususan: pp. 7–18; 59–79; 80–97.
3. Brooks, R. A. (2021). “The Paradoxes of Huntingtonian Professionalism.” In: Beehner, L., Brooks, R. A., Maurer, D. T. (eds.), *Reconsidering American Civil-Military Relations: The Military, Society, Politics, and Modern War*. Oxford: Oxford University Press, pp. 17–40.
4. Farrell, T. G., Terriff, T. (eds.) (2002). *The Sources of Military Change: Culture, Politics, Technology*. Boulder, Colorado: Lynne Rienner Publishers, 301 p. Xususan: pp. 1–19.
5. Farrell, T. (2008). “The Dynamics of British Military Transformation.” *International Affairs*, Vol. 84, No. 4, pp. 777–807. DOI: 10.1111/j.1468-2346.2008.00737.x.
6. OECD. (2024). *OECD Public Governance Reviews: Uzbekistan*. Paris: OECD Publishing.
7. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti. (2025, 29-iyul). *Harbiy ta’lim tizimi bo‘yicha axborot berildi / Military education system discussed*. Toshkent: O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti rasmiy veb-sayti.
8. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti. (2026, 7-may). *Military education and digitalization of the army to be elevated to a new level*. Toshkent: O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti rasmiy veb-sayti.
9. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti. (2024, 2-yanvar). *Defence Construction and Armed Forces Development Issues Discussed*. Toshkent: O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti rasmiy veb-sayti.